O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
“O‘ZBEKISTON MILLIY
ELEKTR TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI
100084, Toshkent sh., Yunusobod t., Osiyo k., 42.
Tel: (998-71) 208-56-01
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Veb sahifa: www.uzbekistonmet.uz

THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
JOIN STOCK COMPANY
“NATIONAL ELECTRIC
GRID OF UZBEKISTAN”
42, Osiyo str., Yunusobod dist., 100084, Tashkent
Ph: (998-71) 208-56-01
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Web site: www.uzbekistonmet.uz

2026-yil 13-oktabr
01-02-20/9079-son

Z.M. Erkabayevga
(abdusalomovshuxrat0415@gmail.com)

2026-yil 25-sentabrda “O‘zbekiston MET” AJ rasmiy veb saytiga kelib tushgan, 745/26-son bilan ro‘yxatga olingan murojaat yuzasidan

Sizning “Sam mix Feed” MChJ elektr ta’minoti uchun 10/35/6 kV “Ohangaron” PSdan qo‘shimcha quvvat olishga tegishli ruxsatnoma yoki qo‘shimcha texnik shartlar berish yuzasidan yo‘llagan murojaatingiz o‘rganib chiqildi.

Siz tomondan murojatda ko‘rsatib o‘tilgan ilovalar “Delta Storage And Logistic” MChJ tomonidan 2026-yil 12-yanvarda berilgan 02/26-sonli texnik shartlar, “Hududiy Elektr Tarmoqlari” AJ Toshkent hududiy filiali tomonidan 2026-yil 26-mayda berilgan 27415233687-sonli texnik shartlar O‘zbekiston MET” AJ rasmiy veb saytiga yuborilmagan.

Obyektni “O‘zbekiston MET” AJ tasarrufidagi podstansiyalarning 6-10 kV tomoniga ulanishi nazarda tutilsa, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-iyundagi 338-son qarori bilan tasdiqlangan “Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalari”ning III bo‘limi talablariga muvofiq **Foydalanuvchi** tomonidan “Uzatish tizimiga ulanish” uchun talabnoma (ilova qilinadi) kiritilishi lozim. Shundan so‘ng Uzatish tizimi operatori tomonidan tegishli tartibda texnik shartlar taqdim qilinadi.

Shuningdek, obyektni “O‘zbekiston MET” AJ tasarrufidagi podstansiyalarning 35 kV va undan yuqori tarafiga yoki 35-220 kVli elektr uzatish tarmoqlariga ulanish ko‘zda tutilsa “Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalari”ning III bo‘limi “Ulanish qoidalari” talablariga muvofiq, quvvati 1 MVtdan katta bo‘lgan obyektni uzatish tizimiga ulash yuzasidan ixtisoslashgan loyiha tashkilotini jalb qilgan holda “Tarmoqqa ulanish tadqiqoti”ni o‘tkazib, obyektning “Tashqi elektr ta’minoti sxemasi” hisoboti ishlab chiqilishi, “O‘zbekiston MET” AJ va “MDM” DMga kelishish uchun taqdim etilishi hamda ushbu hisobot kelishilgandan so‘ng foydalanuvchi tomonidan tanlangan eng maqbul ulanish varianti bo‘yicha texnik shartlar berilishi belgilangan.

Agar ulanish “O‘zbekiston MET” AJ tarmoqlari bilan bog‘langan iste’molchi yoki hududiy elektr tarmoqlariga ulanish ko‘zda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 319-son qarori bilan tasdiqlangan “Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari”ning 20-bandiga asosan ulanish uchun texnik shartlar tarmoq egasidan

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: XX36634674

olinishi va “O‘zbekiston MET” AJ bilan kelishilishi maqsadga muvofiqligi ma’lum qilinadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, ulanish bo‘yicha belgilangan tartibdagi ishlar amalga oshirilganidan so‘ng texnik shartlar taqdim etilishi ma’lum qilinadi.

Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari
B. Murodov

Ijrochi: *ETUQQB*
Telefon: *(+99871) 236-62-23*

“O‘zbekiston MET”AJning
2026-yil 13-oktabr 01-02-20/9079-son
xatiga ilova

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-iyundagi 338-son qaroriga asosan
“Uzatish tizimiga ulanish” uchun talabnoma

NAMUNASI

1	Foydalanuvchining yuridik nomi	
2	Foydalanuvchining yuridik shakli	
3	Elektr tarmoqlariga ulanadigan obyekt nomi	
4	Obyekt joylashgan hudud *(viloyat, shahar, tuman)*	
5	Obyekt joylashuv koordinatalari	
6	Telefon raqami, Elektron pochtasi *(mavjud bo‘lsa)*	
7	Foydalanuvchi turi	Elektr energiya ishlab chiqaruvchilari: barcha ishlab chiqaruvchilarga faqat sinxron generatorlar faqat qayta tiklanuvchi energiya manbalariga Elektr energiyasini saqlash tizimlari Iste’molchi
8	Ulanish turi	Yangi ulanish Rekonstruksiya Elektr ta’minoti ishonchliligi bo‘yicha toifasini o‘zgartirish Ulangan quvvatlarni oshirish
9	Tarmoqqa ulanadigan (oshiriladigan) quvvat (MVt) va quvvat koeffitsiyenti	
10	Elektr ta’minoti ishonchliligi bo‘yicha toifasi	I II III
11	Ulanish nuqtasi (PS yoki EUT nomi)	*(tarmoqqa ulanish tadqiqoti davomida aniqlanadi)*
12	Ulanish nuqtasi kuchlanish pog‘onasi (kV)	*(tarmoqqa ulanish tadqiqoti davomida aniqlanadi)*
13	Loyiha hujjatlarini ishlab chiquvchi tashkilot	
14	Obyektning ishga tushish muddati	
15	Istiqbolli rivojlanish rejasi *(iste’mol quvvatini o‘sib borishi)*	
16	Yuklama tavsiflari (kutilayotgan kunlik iste’mol grafigi)	